

INNOVATSION LOYIHALARNI TEZKOR JORIY ETILISHIDA ASOSIY YONDOSHUVLAR VA STRATEGIYALAR

Safarova Go‘zal Ramazanovna

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti.

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda IT loyihalari boshqarishda zamonaviy globallashuv sharoitida va barqaror rivojlanish zarurati sharoitida kompaniyalar moslashuvchanlik va moslashuvni boshqarish uchun klassik (funktional) modeldan loyiha modeliga o‘tmoqda. Zamonaviy kompaniyalar mas’uliyatni bo‘limlar va bloklar o‘rtasida o‘tkazmasdan, byurokratik to‘siglarni bartaraf etishga va tashkilot ichida umumiy jamoaviy ish muhitini yaratishga intiladi. IT loyihalari boshqarishining metodologiyasini rivojlanishida bozorida loyiha boshqaruvi eng yaxshi boshqaruv vositalarini takomillashtirilgan usullarga birlashtirib, yangi qiyofa kasb etdi. Ushbu maqolada IT loyihalarni amalga oshirishning zamonaviy metodologiyalari va ularning farqlari, shuningdek, zamonaviy katta kompaniyalarda loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha qo‘llaniladigan metodologiyalar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: loyihalarni boshqarish, boshqarish modellari, moslashuvchan metodologiyalar.

ABSTRACT

Today, in the context of modern globalization and the need for sustainable development in IT project management, companies are moving from the classic (functional) model to the project model to manage flexibility and adaptability. Modern companies strive to eliminate bureaucratic obstacles and create a general teamwork environment within the organization without transferring responsibility between departments and blocks. In the development of the IT project management methodology, the market of project management has acquired a new look by combining the best management tools into improved methods. This article analyzes modern IT project implementation methodologies and their differences, as well as methodologies used in modern large companies for project implementation.

Key words: project management, management models, flexible methodologies.

KIRISH

Bugun biz axborot texnologiyalari jamiyatning asosiy mahsuloti va resursiga aylangan dunyoda yashayapmiz. Deyarli barcha turdag'i korxonalarining va kompaniyalarning faoliyati u yoki bu tarzda uni qayta ishslash, saqlash, ishlab chiqarish va ishlatish bilan bog‘liq. Shunday qilib, axborot texnologiyalari

hayotimizda mustahkam o'rnashib olmoqda va hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Axborot jamiyati o'zining rivojlanishi va o'zgarishlarining ulkan sur'ati bilan ajralib turadi. Bu bir necha o'n yillar oldin kuzatilmagan.

Masalan: muhandis ta'lif olishi mumkin edi va bu bilim unga bir umr yetarli edi. Hozirda esa nafaqat davriy malaka oshirish, balki umrbod ta'lif olish, o'qib o'rganishi zarurati paydo bo'ldi. Xulosa qilib aytganda, atrof-muhit o'zgarishlarining sur'ati keskin oshdi, shuning uchun ekologik o'zgarishlar bilan kurashish zarurati paydo bo'ldi. Shunday qilib, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish sohasida vaqt o'tishi bilan tezkor rivojlanish tushunchasi paydo bo'ldi. Bu bizga atrofimizdagi o'zgarishlarni munosib tarzda yengish va mijozga kerakli mahsulotni yaratish imkonini bermoqdi.

Mavzuning dolzarbliji. IT-loyihalarini boshqarish modellari yuqori sifat standartlariga javob berishi kerak, shuning uchun hozirgi kunda ko'plab muvaffaqiyatli kompaniyalar loyihalarni boshqarish tizimidan foydalanadi. Bunday tizimdan foydalanish loyiha bilan bog'liq xato va muammolarni aniqlash va risklarni bartaraf etish, ularning oldini olish bo'yicha o'z vaqtida choralar ko'rishga yordam beradi. Shunday qilib, loyihalarni boshqarish modellari IT sohasidagi biznes maqsadlariga erishish uchun zarur vosita bo'lib, jamoa ishining sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirishga yordam berishi mumkin.

Tadqiqot maqsadi. IT loyihalarini boshqarish modellarini barcha tashkilotlarga tatbiq qilish va jarayonlarni o'zgartirish hamda tezkor rivojlanish uchun ish jarayonlarida qo'llash.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida IT loyihalarini boshqarishning zamonaviy modellari turlari tanlab olingan. Tadqiqotni olib borishda ushbu modellarni kompaniyalarning boshqaruv faoliyatida qo'llanishi haqida tahlil qilindi.

Mavzu yuzasidan kompaniyalarning IT loyihalarini modellaridan foydalanganligi tahlili. Har qanday IT loyihalarni mutaxassislar amalga oshiradi, ular esa jamoa bo'lib ishlashi talab etiladi. Jamoaga esa jamoa bo'lib ishlashning umumiyligi qoidalari bilan birga boshqaruv uslublarini (project management methodology) joriy qilish kerak bo'ladi.

Zamonaviy kompaniyalar mas'uliyatni bo'limlar va bloklar o'rtasida o'tkazmasdan, byurokratik to'siqlarni bartaraf etishga va tashkilot ichida umumiyligi jamoaviy ish muhitini yaratishga intiladi. Scrumalliance hisobotiga ko'ra, IT-kompaniyalarning 70% Scrumdan foydalanadi. Ular orasida Google, Amazon, Salesforce, Microsoft, Adobe kabi gigantlar bor. Startaplar va yosh loyihalar

Kanbanga ko‘proq moyil, ammo undan Toyota va masalan, Wargaming geymerlari ham foydalanadilar. MDHning oddiyroq kompaniyalari Prom.ua, Bigl.ua, Kabanchik.ua Scrum va Kanban metodologiyalaridan bir vaqtning o‘zida foydalanadilar, lekin turli vazifalar uchun. Scrum - rejalashtirish vositasi sifatida, Kanban - ishning borishini kuzatish uchun. RUPga kelsak, u ko‘pincha 50-200 xodim va 1-10 million dollar daromadga ega bo‘lgan G‘arb kompaniyalari tomonidan qo‘llaniladi. Shu bilan birga, IBM OpenUP metodologiyasini - “RUP, faqat agile”ni chiqarish orqali Agile tamoyillariga yaqinlashish uchun RUP-ni o‘zgartirdi. Xuddi shu maqtovga sazovor Agile chaqqonligi endi IT landshaftini boshqaradi . Hozirgi kunda bu shunchaki moda emas - u hali ham innovatsion va u ko‘plab yirik kompaniyalarda ishlaydi. Agile Silikon vodiysida Facebook va Uber tomonidan qo‘llaniladi.

Loyihaning hayot aylanishi — loyihaning bosqichlari yoki bosqichlari ketma-ketligi. Loyihaning umumiyligi hayot siklida quyidagi bosqichlarni ajratish mumkin: Loyihani boshlash (Initiation stage) Loyihaning ushbu bosqichi loyihaning maqsad va vazifalarini baholaydi, uning ko‘lamini belgilaydi va loyiha va biznes strategiyasi o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatadi.

Xorijiy IT amaliyotidan misollar:

- Google mobil qurilmalar uchun yanada ochiq va moslashuvchan platformani taklif qilish maqsadida 2003-yilda Android loyihasini ishga tushirgan.
- Apple o‘z iste’molchilari uchun innovatsion mobil telefon yaratish maqsadida 2005-yilda iPhone loyihasini ishga tushirgan.

Loyihani rejalashtirish (Planning stage) Loyihaning ushbu bosqichi loyiha rejasini ishlab chiqish, uni baholash va tasdiqlash, shuningdek, loyiha jamoasi ichida aniq rol va mas’uliyatni belgilashni o‘z ichiga oladi. IT loyiha boshqaruvining hozirgi kunda uslublari juda ko‘p bo‘lib, ularni umumiyligi ikkiga: Sharshara (Waterfall) va Moslashuvchan (Agile) turlariga ajratish mumkin. Sharshara loyiha boshqaruvi uslubi odatiy loyiha boshqaruvi uslubi bo‘lib, loyiha bosqichlari ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Ya’ni loyihaning bir bosqichi tugamaguncha ikkinchi bosqichi boshlanmaydi. Odatda har bir bosqich “qattiq” rejalashtiriladi va noto‘g‘ri rejalashtirilgan loyiha yoki “rejalashtirilmagan” xavf-xatar yuzaga kelsa, o‘sha zahoti loyiha muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Ushbu uslub afzalliklariga loyihaning sinchkovlik bilan rejalashtirilgani va har bir bosqich manfaatdor tomonlar bilan kelishilib qo‘yilgani sababli mazkur loyihani boshqarish osonroq kechadi. Odatda loyihalar yaxshi hujjatlashtirilgan bo‘ladi. Ushbu uslubning kamchiliklariga kelsak, loyihaga boshqa uslublarga nisbatan ko‘p vaqt sarflanadi. Loyihaning qaysidir

bosqich muvaffaqiyatsizligi qolgan barcha bosqich muvaffaqiyatsizligini kafolatlaydi.

Funktsionallikka asoslangan rivojlanish besh bosqichli jarayon, ob'ektga yo'naltirilgan ishlab chiqish, juda qisqa takrorlashlar, usulning soddaligi, ob'ektni modellashtirish. Ushbu metodologiya faqat loyihalash va amalga oshirishga qaratilgan, ishlab chiqishga juda kam e'tibor beriladi

IT loyihalarini boshqarish metodologiyasini aniqlashning boshqa yondashuvlaridan farqli o'laroq, taklif etilayotgan yondashuv yanada moslashuvchan, hamkorlikka asoslangan va loyihaning o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan. Boshqa yondashuvlar oldindan belgilangan metodologiyaga asoslangan bo'lishi mumkin yoki loyihani boshqarishga yaxlit yondashuvdan ko'ra faqat loyihaning texnik jihatlariga e'tibor qaratish mumkin. Taklif etilayotgan yondashuvdan foydalangan holda, tashkilotlar o'zlarining maxsus ehtiyojlariga javob beradigan tegishli loyihani boshqarish metodologiyasini tanlash orqali loyiha muvaffaqiyati ehtimolini oshirishi mumkin. IT loyihalarni boshqarish metodologiyasini yaratish individual loyihalarning o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirishi mumkin bo'lgan loyihalarni boshqarishga moslashtirilgan va moslashuvchan yondashuvni ta'minlaydi. Metodologiya turli funktsiyalar, usullar va vositalarni kiritish imkonini beradi va keng ko'lamli IT loyihalarini, jumladan, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, infratuzilmani amalga oshirish va ma'lumotlarni ko'chirish loyihalarini boshqarish uchun ishlatilishi mumkin. Shunday qilib, tavsiya etilgan metodologiyani shakllantirish IT-loyiha menejerlari uchun o'z loyihalari uchun tegishli loyihalarni boshqarish metodologiyasini tanlash va ularni o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirish uchun qimmatli positani taqdim etadi.

Moslashuvchan loyiha boshqaruvi uslubi nisbatan yangi uslub bo'lib, 2000-yillar boshlaridan ommalashib kelmoqda. Bir guruh dasturchi ko'ngillilar 2001-yil 11-13-fevral kunlari Yuta shtatidagi Vasatch tog'laridagi tog'-chang'i dam olish maskanida "Agile manifesto" deb nomlangan hujjatni e'lon qilishadi. Ushbu hujjatga ko'ra, loyihalar quyidagi asoslarga tayanib boshqarilishi kerak:

- Insonlar va munosabatlar jarayonlar va vaziyatlardan ustun;
- Ishlaydigan dasturiy ta'minot keng qamrovli hujjatlardan ustun;
- Mijozlar bilan hamkorlik qilish shartnoma shartlaridan ustun;
- O'zgarishlarga o'z vaqtida javob berish rejaga amal qilishdan ustun.

Yuqoridagi asoslardan kelib chiqib ushbu uslubning 12 ta tamoyili ham mavjud, lekin biz ushbu maqolada ularga to'xtalmaymiz.

Ushbu uslubning afzallik tomonlariga loyiha tez va sifatli amalga oshishi, mijozlarining talablari o'zgarishiga bardosh bera olishi, bozor talablariga tez ko'nika

olishi kirsa, kamchiliklariga jamoaning ushbu uslubga ko‘nikishi va o‘qitilishiga ketadigan vaqt sarfi, loyiha muvaffaqiyati odamlarga va mutaxassislarga bog‘liqligi kiradi.

Moslashuvchan loyiha boshqaruvi uslubi nafaqat IT yo‘nalish, balki barcha yo‘nalishdagi loyihalar uchun ham innovatsion g‘oya hisoblanadi. Ushbu uslub ko‘plab loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshishiga sababchi bo‘ldi va tom ma’noda loyiha boshqaruvida yangi burilish yasadi. Jamoa a’zolarining o‘zaro ishonchi ustiga qurilgan munosabatlar va har qanday muammo yoki qiyinchilik jamoa ichida o‘tkaziladigan ochiq suhbatlarda muhokama qilinishi va yechim topishi ushbu uslubning haqiqiy kuchi hisoblanadi. Shu o‘rinda yana bir muhim jihatni e’tiborga olish kerak, loyihami amalga oshirish jarayonini kuzatib borish muhim. Chunki qaror qabul qiluvchilar loyiha bajarilishi ko‘rsatkichlarini kuzatib borishlari kerak. Odatda ko‘rsatkichlar asosida loyiha doirasida muhim qarorlar qabul qilinadi. Ushbu ko‘rsatkichlar Sharshara va Moslashuvchan o‘ziga xos amalga oshiriladi.

Sharshara uslubida loyiha ko‘rsatkichlarini kuzatib borish uchun Gant diagrammasi ishlataladi. Avval aytganimizdek, Sharshara avvaldan yaxshilab rejalashtirilgani sababli va har bir rejalashtirilgan bosqichlar sanalarga asosan loyiha taqvimida kuzatib boriladi.

Moslashuvchan loyiha boshqaruvi uslubi loyiha ko‘rsatkichlarini kuzatib borishda jarayonda bo‘lgan ishlar ko‘lami (Work in progress — WIP) va kamayib boruvchi ishlar ko‘lami jadvali ishlataladi. Ushbu ko‘rsatkichlarning qiziqarli tomoni loyiha boshida tuzilgan ishlar ro‘yxati kamayib borishi muvaffaqiyat sanaladi. Ushbu ko‘rsatkich ishlar ko‘lami va jamoaning ishchanligi ko‘rsatkichini aniq ko‘rsatib beradi va zarur hollarda qaror qabul qiluvchilar qaror qabul qilishini osonlashtiradi.

Loyiha boshqaruvi uslubini tanlashda ko‘plab omillar nazarda tutilishi mumkin. Masalan, korxonada o‘rnatilgan qoidalar, loyiha menejerining shaxsiy tanlovi yoki buyurtmachining tanloviga ko‘ra bo‘lishi mumkin. Lekin zamonaviy kompaniya va startaplarda muvaffaqiyatli loyihalarning aksariyati Moslashuvchan loyiha boshqaruvi uslubida amalga oshirilganligi guvohi bo‘lamiz.

IT loyihalarda boshqaruvning ahamiyati yana ko‘plab maqolalarga mavzu bo‘lishi mumkin, lekin muxtasar qilib aytsak, loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshishi jamoa har bir a’zosining bilim va ko‘nikmalari bilan bir qatorda to‘g‘ri tanlangan va yo‘lga qo‘yilgan loyiha boshqaruviga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Loyihani boshqarish instituti. Loyiha boshqaruvi bilimlari bo'yicha qo'llanma (PMBOK® Guide). 6-nashr. Nyutaun maydoni, Pa: Loyiha boshqaruvi instituti, 2017. [Google Scholar]

2. Layton, Mark C. va Stiven J. Ostermiller. Dummies uchun tezkor loyiha boshqaruvi. 2-nashr. Indianapolis: Jon Wiley & Sons, 2020. [Crossref], [Google Scholar]
3. Stellman, Endryu va Jennifer Grin. Chaqqonlikni o'rganish: scrum, XP, lean va kanbanni tushunish. Sebastopol, Kaliforniya: O'Reilly Media, 2014. [Google Scholar]